

## Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2021-yilning III- choragida amalga oshirilgan ishlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 3fevraldagi “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF–6155-son Farmoni doirasida tizim oldiga belgilab berilgan topshiriqlarni so‘zsiz, sifatli va o‘z muddatida ijrosini ta‘minlash borasida 2021 yilning 9 oyida amalga oshirilgan ishlar hamda statistika organlari oldida turgan kelgusidagi ustuvor vazifalar haqida gapirib o‘tdi.

Shuningdek, “2021- yil uchun Davlat statistika ishlari dasturi” doirasida qo‘mita va uning hududiy statistika organlari tomonidan 2021-yilning I-yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma‘lumotlarni keltirib o‘tdi.

Jumladan, dastlabkima‘lumotlarga ko‘ra, 2021- yilning yanvar–sentabrda Farg‘ona viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 33 640,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 7,4 % ga o‘sdi. YaHM deflyator indeksi 2020-yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 118,1 %ni tashkil qildi. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YaIMning shakllanishida Farg‘ona viloyatining qo‘shgan hissasi 6,5 %ga yetdi.

Viloyat korxonalarini tomonidan 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida 19317,1mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 106,4 %ni tashkil etdi.

2021–yilning yanvar–sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 20415,2 mlrd. so‘mni yoki 2020–yilning mos davriga nisbatan 104,4 %ni tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida, Farg‘ona viloyatida jami 4 948,3 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 114,1 %ni tashkil etdi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2021-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) **48 851** tani tashkil etib, ulardan **47 306** tasi yoki **96,8** % i faoliyat ko‘rsatmoqda. 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda **7 023** ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **12,8** trln. so‘mni, 2021-yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **119,6** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi **13,3** trln so‘mni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan **107,0** % ga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida 1 353,3 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport – 587,4 mln. AQSH dollari va import – 765,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Farg‘ona viloyatida 2021- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni 3 878,0 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 58,1 ming kishiga yoki 1,5 %ga o‘sdi.

2021-yilning yanvar-sentabr oylarida investitsion faollikni oshgani kuzatilib, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish

sur'ati 103,1 %ni tashkil etdi. 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida 9 102,7 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 59,1 %i yoki 5 375,9 mlrd. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 40,9 % yoki 3 726,8 mlrd. so'm moliyalashtirildi.